



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

II SHO‘BA: YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY OMILLARI

СЕКЦИЯ II: СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

SECTION II: SOCIO-POLITICAL FACTORS FOR ENHANCING THE WORLDVIEW OF YOUTH

YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O‘ZLIK MASALASIGA DOIR

Baxtiyor Omonov

*O‘zbekiston milliy universiteti
professori, siyosiy fanlar doktori.*

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/HYBF1442

Annotasiya: Maqolada so‘nggi yillarda yurtimizda kechayotgan islohotlar sharoitida yoshlar siyosiy madaniyati va milliy o‘zlikni asrashning ahamiyatiga e’tibor qaratilib, bu sohada qilinadigan ishlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy ong, siyosiy madaniyat, yoshlar muammolari, milliy o‘zlik, milliy taraqqiyot, globallashuv, axborot asri, ijtimoiy tarmoqlar.*

О ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ МОЛОДЕЖИ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Бахтиёр Омонов

*профессор Национального университета Узбекистана,
доктор политических наук*

Аннотация: В статье уделяется внимание важности сохранения политической культуры и национальной идентичности молодежи в условиях реформ, происходящих в нашей стране в последние годы, и анализируется работа, проводимая в этой области.

Ключевые слова: *политическое сознание, политическая культура, проблемы молодежи, национальное самосознание, национальное развитие, глобализация, информационный век, социальные сети.*

Siyosiy madaniyat – bu jamiyat a'zolarining siyosiy hayotga bo'lgan munosabati, siyosiy jarayonlardagi ishtirok darajasi, siyosiy institutlar, qadriyatlar va an'analarga munosabatlar yig'indisi. U shaxsning siyosiy bilimi, tafakkuri, faolligi va siyosiy jarayonda ishtirokini belgilaydigan ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy fenomen.

Bugungi kunda, siyosiy madaniyat nafaqat siyosiy jarayonlarning in'ikosi, balki fuqarolik jamiyati, demokratiya, huquqiy davlat kabi institutlarning rivojlanish omili sifatida ham qaraladi.

Milliy o'zlikni anglash deganda muayyan xalq, millat va elatning moddiy va ma'naviy boyliklarini ifoda etuvchi etnik birlik, umumiy til, urf-odatlar, an'analar, diniy qadriyatlar, milliy ruhiyat, milliy ma'naviyat, madaniyat, turmush tarzi, hudud orqali o'zligini bilish tushuniladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin, ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan»[1]. Bu o'rinda masalaning echimi va vazifalari aniq belgilab berilgan.

Taniqli olim, professor S.Otamuratovning fikricha, “Har bir millat va elatning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odat, an'analar, qadriyatlarga, davlatga mansubligini manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib etishi milliy o'zlikni anglash”[2], deb ataladi va “Milliy o'zlikni anglash har bir tarixiy taraqqiyot bosqichida rivojlanib va takomillashib boradi”[3]. Professor S.Otamuratovning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, shuni aytish mumkinki, har bir millat va elatning o'zini real mavjud bo'lishligi uchun uning tili, urf-odatlari, o'tmishi, tarixiy an'analari, qadriyatlari, muayyan davlatga mansubligini to'laqonli anglab etishi, bu - milliy o'zlikni anglashning zaruriy qismidir.

“Jamiyatdagi ko'plab muammolar tahlili milliy o'zlikni anglash masalasini yana kun tartibiga qo'yimoqda. Mustaqillik yillarida bu borada birmuncha siljishga erishildi.

Urf-odatlar, qadriyat, diniy e'tiqodimiz tiklandi, muqaddas maskanlar, masjid-u madrasalar, tarixiy obidalar qayta ta'mirlanib, xalqimizga qaytarib berildi. Fuqarolarimiz ma'naviy-ruhiy olamida yangilanish, poklanish va yurti uchun g'ururlanish hissi paydo bo'ldi. Ta'lim-tarbiya dargohlarida yoshlarning ongiga qadimiy merosimizni bilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emasligi tushuntirilmoqda. Zero, milliy o'zlikni anglash – o'tmish bilan kelajakni bog'lovchi ma'naviy ko'priki ekanligi yoshlar ongiga singdirilmoqda" [4].

Demak, har bir jamiyatda milliy o'zlikni anglamasdan rivojlanish mumkin emas. Milliy o'zlikni anglash – o'tmish bilan kelajakni bog'lovchi ma'naviy ko'priki bo'lib, aynan ushbu ko'priki orqali avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlik va vorisiylik paydo bo'ladi.

Milliy o'zlik – bu millatning o'ziga xosligini anglash, tarixiy xotira, umummilliy qadriyatlar, urf-odatlar va til asosida shakllanadigan ijtimoiy-madaniy hodisadir. U o'z ichiga tarixiy meros, madaniy an'analar, diniy-ma'naviy qadriyatlar va milliy g'oyani oladi.

Milliy o'zlik shakllanishining asosiy bosqichlari:

Etnik anglash davri – millat vakillarining o'zini boshqalardan farq qiluvchi etnik belgilar asosida ajratishi.

Tarixiy xotira uyg'onishi – milliy qahramonlar, tarixiy voqealar va timsollarni anglash orqali umumiy g'oya atrofida birlashish.

Milliy tafakkur va g'oyaning shakllanishi – milliy g'oyalar, madaniy na'munalar va til orqali jamiyatda milliy o'zlikni anglash.

Ijtimoiy-siyosiy uyg'unlikka erishish – milliy o'zlikning siyosiy madaniyatdagi ifodasi, fuqarolik hamjihatligi va siyosiy barqarorlik bilan uyg'unlashishi.

Bir so'z bilan aytganda, milliy o'zlikni siyosiy mustaqillik ma'naviy tayanchi, millatning ichki birligi va taraqqiyot garovi deyish mumkin.

Shunisi muhimki, siyosiy madaniyat va milliy o'zlik o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud. Siyosiy madaniyat milliy o'zlik orqali shakllanadi, chunki inson siyosiy jarayonlarda o'zini kim deb his etishiga qarab faol yoki befarq bo'ladi. Agar u

o'zini muayyan millat, tarix, madaniyat va davlat bilan bog'liq deb bilsa, uning siyosiy madaniyati ham faol, demokratik va mas'uliyatli bo'ladi.

Milliy o'zlikning vazifalari shuki, u:

1. Jamiyatda fuqarolik hissi va mas'uliyatni kuchaytiradi;
2. Davlat ramzlari va institutlariga hurmat tuyg'usini uyg'otadi;
3. Siyosiy institutlarga nisbatan ishonchni oshiradi;
4. Mustaqil fikr va siyosiy faollikni rag'batlantiradi.

Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni yo'qotish siyosiy madaniyatning susayishiga, ijtimoiy inertlikka va davlat institutiga ishonchsizlikka olib kelishi mumkin. Milliy siyosiy madaniyat tarixi an'analarga suyanadi. Jumladan, O'zbekiston tarixida Amir Temur, jadidlar, mustaqillik davridagi islohotlar kabi omillar milliy siyosiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Professor N.Nazarovning yozishicha, «Milliy o'zlikni anglash har bir etnos milliy mentalitetining shakllanib rivojlanishida hamda etnosning rivojlanish jarayonida tarixiy-madaniy omillar ta'sirini idrok etish, o'zlikni anglab, o'zga etnik guruh vakillari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'alariga hurmat bilan qarashdir[5]. Agar N.Nazarovning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, har bir shaxs milliy o'zlikni anglash borasida milliy mentalitetini anglashi, madaniy omillar ta'sirini idrok etish, o'zlikni anglab etishi, o'zga etnik guruh vakillari tarixi, madaniyati, urf-odat va an'alariga nisbatan tolerant bo'lish g'oyasi ilgari suriladi. Biz, albatta, bu fikrga to'liq qo'shilamiz.

Professor V.Qo'chqorovning ta'kidiga ko'ra, «O'zlikni anglash jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri idrok etish, ijtimoiy tajribalardan foydalanish zaruriyatini, qonuniyatlarini bilish» [6]. Olim tomonidan ilgari surilgan g'oya, bu - o'zlikni anglashda har bir millat va elatni jamiyat oldida turgan vazifalarni to'g'ri idrok etish, ijtimoiy tajribalardan foydalanish zaruriyatini, qonuniyatlarini bilishni talab etmoqda.

Har bir millatning o'zlikni anglash jarayonlariga bevosita ta'sir etuvchi omillari to'g'risida professor I.Ergashev «O'zlikni anglash ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat, tarix, milliy madaniy merosdan xalos bo'lgan holat emas. U bugungi jamiyat qurilishi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi» [7], degan fikrni bildiradi. Albatta, millatning

o'zlikni anglashi ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat, tarix, din, milliy madaniy qadriyatlar va meroslarni anglagandagina yuz beradi. Aynan, ushbu omillarni anglagan holda, o'sha millat bugungi davlat va jamiyat qurilishini to'g'ri tushunishi va barqaror islohotlarni amalga oshirishi mumkin.

Bugungi kunda an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy siyosiy tushunchalar uyg'unligini ta'minlash – siyosiy madaniyat rivoji uchun muhim vazifadir.

Xullas, siyosiy madaniyat va milliy o'zlik bir-biriga chambarchas bog'liq jarayonlar bo'lib, biri ikkinchisiz to'liq rivojlana olmaydi. Milliy o'zlik fuqaroning siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatini, faolligini va mas'uliyatini belgilaydi. Siyosiy madaniyat esa milliy qadriyatlarni amaliy hayotga tatbiq etadigan mexanizm sifatida harakat qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy o'zlikni tiklash, milliy qadriyatlar va an'analarni siyosiy va davlat boshqaruvi tizimida qayta jonlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Bu jarayonda bir vaqtning o'zida siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati va demokratik madaniyat ham shakllana boshladi.

Milliy o'zlikni mustahkamlashga qaratilgan dastlabki islohotlar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (1992, 2023) – milliy davlatchilik, xalq suvereniteti, milliy ramzlarning huquqiy kafolatini belgiladi;

"Milliy istiqlool g'oyasi" va "Ma'naviyat" konsepsiyalari – milliy g'oya va o'zlikni mustahkamlashning mafkuraviy asosini yaratdi;

Ta'lim tizimida tarix, adabiyot va madaniyatni qayta ko'rib chiqish – yosh avlodda milliy iftixor va siyosiy faollikni tarbiyalashga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida siyosiy madaniyatning milliy o'zlik asosida shakllanishi quyidagi asosiy tamoyillarga tayandi:

davlat ramzlarini qadrlash (bayroq, gerb, madhiya);

tarixiy shaxslarga munosabatni o'zgartirish;

davlat tili va milliy madaniyatning markaziy o'rin egallashi.

Bularda milliy o'zlik siyosiy faollik uchun ma'naviy motivasiya vazifasini o'tadi, chunki shundagina inson o'zini jamiyatning mas'ul a'zosi sifatida his eta oladi. Biroq

axborot xurujlari, feyk kontent va tashqi ta'sirlarga qarshi immunitet faqat milliy o'zlikka tayanadigan siyosiy ong orqali shakllanadi.

Bizningcha, milliy o'zlikka suyanan siyosiy madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi amaliy choralarni ko'rish tavsiya etiladi:

Siyosiy ta'limni kuchaytirish – fuqarolik va siyosiy fanlarni interfaol, milliy tafakkurga suyanan mazmunda qayta shakllantirish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda targ'ib qilish.

Erkin OAVni ma'naviy tarbiya vositasi sifatida qaytadan tashkil etish – kontentlarda milliy g'oya, tarix va davlatga sadoqat ruhini kuchaytirish.

Interaktiv va raqamli siyosiy platformalarni yaratish – “MyGov” yoki “e-davlat” asosida yoshlarning onlayn siyosiy ishtirokini kengaytirish.

Umuman olganda, Yangi O'zbekistonda milliy o'zlikka asoslangan siyosiy madaniyat jadal shakllanmoqda. Bu jarayonda ta'lim, OAV, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat siyosatining uyg'un harakati muhim o'rin tutmoqda. Bunda milliy o'zlik – siyosiy faollikni anglatuvchi ma'naviy tayanch vazifasini o'tamoqda. Ammo bir xavf borki, ushbu tayanch mustahkamlab borilmasa, jamiyat siyosiy inertlikka yuz tutadi. Shuning uchun milliy o'zlik va siyosiy madaniyat uyg'unligi har qanday siyosiy islohotning ma'naviy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi axborot asrida O'zbekistonda milliy o'zlik va siyosiy madaniyat quyidagi tahdidlarga duch kelmoqda:

1. Globallashuv ta'siri. G'arbcha turmush tarzi va shaxsiyat erkinligi tushunchalarining noto'g'ri talqini yoshlar ongida individualizmni kuchaytirmoqda;
2. Axborot makonidagi mafkuraviy ta'sirlar kuchayishi. Feyk xabarlar, bloggerlar orqali tarqaluvchi yolg'on siyosiy tasavvurlar singdirilmoqda;
3. Ta'lim tizimidagi zaifliklar. Siyosiy ta'lim dasturlarida milliy g'oya va o'zlikning zamonaviy formatda targ'ib etilmasligi (interaktiv usullar etishmasligi).
4. Siyosiy befarqlikning normallashtirilganligi. Yoshlarning siyosiy jarayonlarda faqat iste'molchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etayotganligi.

Bir so'z bilan aytganda, siyosiy madaniyat va milliy o'zlik jamiyatning ma'naviy va siyosiy ustuvor rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi

konseptlardir. Nazariy tahlillar va O'zbekiston misolidagi amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy madaniyatni mustahkamlash jarayonida milliy o'zlikning o'ri beqiyos.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Siyosiy madaniyat – jamiyat a'zolarining siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, davlatga nisbatan munosabati va siyosiy ongini ifoda etuvchi ijtimoiy fenomen bo'lib, u milliy o'zlikni anglash darajasiga bevosita bog'liq kechadi.

Milliy o'zlik – tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar, til, diniy va mafkuraviy asoslarga suyanan holda shakllanadi va siyosiy ongning tub manbai saanaladi. U shaxsda fuqarolik mas'uliyatini uyg'otadi hamda siyosiy faollikni rag'batlantiradi.

Siyosiy madaniyat va milliy o'zlik o'rtasida o'zaro ta'sirchan munosabat mavjud: milliy o'zlik siyosiy madaniyat mazmunini belgilasa, siyosiy madaniyat uni hayotga tatbiq etadi.

Bizningcha, O'zbekiston taraqqiyoti yangi bosqichida milliy o'zlikni anglash va siyosiy madaniyatni oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri, bu – yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasini kuchaytirishdir. Ma'naviy-mafkuraviy tarbiya farzandlar ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni milliy o'zlikni anglash ruhida shakllantirishning ijtimoiy, siyosiy, pedagogik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri deyish mumkin.

Biz G'arb madaniyatiga ro'para bo'lganda, sharqona axloq-odob qoidalarini, yuksak ma'naviyat va boy madaniyatimizni, qadriyatlarimizni qalqon qilib qo'yishimiz kerakka o'xshaydi. Avvalo, ma'naviy xavfsizlik haqida qayg'urar ekanmiz, eng avvalo, yoshlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning ahamiyati qanchalik baland ekanligini tushunish muhim ahamiyatga ega. Negaki, *ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan xalq, millat taraqqiy etadi, kelajakka qarab dadil, izchillik bilan qadam bosadi va aksincha, ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan davlat tanazzulga uchraydi.*

Taniqli adabiyotshunos olim O. Davlatov ta'kidlaganidek, "Milliy g'urur, milliy g'oya davlatning iqtisodiy, chegaralari kengligi, aholi soni, boyliklari, geopolitik

joylashuvi kabi barcha asoslarni birlashtiruvchi asosiy omil. Birgina g'urur bo'lmas ekan, qolgan asoslar davlat qudratiga foyda bermaydi. Davlatning millionlab armiyasi bo'lsin, lekin unda g'urur bo'lmasa, u davlatni himoya qilmaydi. Qaytaraman, davlatda odamlarning milliy g'ururini ko'tarish, saqlash juda muhim masala hisoblanadi" [8]. Ushbu fikrlarda achchiq haqiqat yotibdi. Biz xitoy, yapon, gruzin xalqi kabi milliy tili, qadriyatlari, manfaatlari uchun kurashadigan xalqqa tezroq aylanmog'imiz zarur. Aks holda, globallashuv iskanjasida qolib ketib, milliylikimizni yo'qotishimiz mumkin. Hozirda kunday ko'rinib turgan tashqi xavf-xatarlar (ommaviy madaniyat, siyosiy texnologiyalar) va ichki tahdidlar (byurokratiya, korrupsiya)dan qutulish uchun esa yoshlarimizning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatni yuqori darajaga ko'tarishimiz shart.

Bizning fikrimizcha, milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash konsepsiyasi xalqimizning buyuk mutafakkir va allomalari, davlat va jamoat arboblari, atoqli ijodkor va ziyolilarining qarashlari, boy ma'naviy-ma'rifiy merosi milliy g'oyaning hamda milliy o'zlikning negizlarini uzviy holda shakllantirib boradi.

Xulosa shuki, yuksak siyosiy madaniyat va milliy o'zlik xalqning asriy dunyoqarashi, tarixiy o'zligi, an'analari, urf-odatlari va milliy tarbiyasi, mentalitetining ma'naviy manbai sifatida yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O'zbekiston, 2017. B.24
- 2 Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – B.114.
- 3 Otamuratov S. Milliy rivojlanish falsafasi – T.: Akademiya, 2005. – B. 20.
- 4 Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Alohqachi, 2019. - B. 169.
- 5 Nazarov N. Mustaqillik sharoitida etnoijtimoiy jarayonlar. – T.: O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, 2005. - B.64.
- 6 Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy – siyosiy jarayonlar. – T.: Akademiya, 2007.-B.61.
- 7 Ergashev I. Hayotning har oni falsafa. – T.: Akademiya, 2011. – B. 19..

8 O‘zbekning g‘ururini qanday ko‘tarmoq kerak? – Olimjon Davlatov bilan suhbat.
<https://kun.uz/kr/news/2022/01/24/ozbekning-gururini-qanday-kotarmoq-kerak-olimjon-davlatov-bilan-suhbat#!> 24.01.2022.

PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY

Vahob Kuchkarov,

doctor of political sciences,

professor of the Philosophy department of the

TSUE abduvahob.uz@mail.ru

Tel: +998 93 565 63 44

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/GRNC3199

Annotation: This article discusses the pragmatic aspects of national self-consciousness in increasing youth social activity, in which the current relevance of the topic, the specific features of national identity in relation to youth national self-consciousness are studied. Furthermore, the pragmatic aspects of the implementation of state youth policy in the context of New Uzbekistan are covered within the framework of the topic.

Key words: *youth, national identity awareness, identity awareness, political identity, national idea, ideological immunity.*

Naturally, not only the present day, but also its future, sustainable development of every state and society is directly related to the social activity of young people, as well as their life position. Therefore, while ensuring the gradualness of the reforms being implemented in the conditions of New Uzbekistan is of great importance, on the one hand, it is this social group that will be responsible for implementing the main goals and objectives of the life of the state and society in the future. Indeed, as President Sh. Mirziyoyev emphasized: “The future and well-being of our planet depend on what kind of people our children will grow up to be. Our main task is to create the necessary conditions for young people to demonstrate their potential” [<https://president.uz/uz/lists/view/1063>].

Young people have always been and remain the most active and dynamic social and age group, realizing their potential in all spheres of society: political, social,

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

